

OG‘ZAKI MULOQOT AKTIDA OBYEKTIW VA SUBYEKTIV MODALLIK KATEGORIYALARI

Saparbaeva Gulandam Masharipovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti, UrDU

Ibragimova Xadicha Sherzodovna,
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2- bosqich magistranti, UrDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz funksional tilshunosligida borgan sari ommalashib borayotgan modallik kategoriyasi haqida so‘z yuritiladi. Bu kategoriya obyektiv va subyektiv turlarga tasnif qilingan holda, ularning eng muhim elementlari keltirilib o‘tiladi. Maqolada modal ma’no ifodalovchi turli xil lingvistik vositalar va ularning ifoda darajalari analiz qilinadi. Shuningdek, modallik kategoriyasining nutq aktida va ijtimoiy munosabatlarda ishlatilish xususiyatlari keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: modallik, mayl, subyekt, obyekt, element, subyektiv modallik, obyektiv modallik.

Abstract: This article deals with the category of modality, which is gaining more attention in English functional linguistics. This category is classified into objective and subjective types, and their most important elements are presented in the paper. The article analyzes various linguistic means expressing modal meanings and their levels of expression. Additionally, the features of using modality in the speech act and social relations are presented.

Key words: modality, mood, subject, object, element, subjective modality, objective modality.

Аннотация: В данной статье рассматривается категория модальности, которая получает все большее внимание в англоязычной функциональной лингвистике. Эта категория подразделяется на объективные и субъективные типы, и в статье представлены их наиболее важные элементы. В статье анализируются различные языковые средства, выражающие модальные значения, и уровни их выраженности. Дополнительно представлены особенности использования модальности в речевом акте и социальных отношениях.

Ключевые слова: модальность, наклонение, субъект, объект, элемент, субъектная модальность, объективная модальность.

Muloqot munosabatga kirishuvchi ma'lum elementlarning bo'lishini taqozo etadi. Tilshunoslikda o'zaro munosabatda bo'lgan elementlar masalasi o'zining aniq talqinini topgan emas. Shuning uchun munosabatning o'zi ham shu kunga qadar noaniq bo'lib keldi. Obyektiv modallik deganda, odatda, gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabati tushunilar ekan, demak, uning sxemasi quyidagicha: gap mazmuni — reallik. Bu o'zaro ma'lum munosabatga kirishuvchi ikki elementdir. Munosabat esa elementning qismiga ham, elementlar yig'indisiga ham teng emas.

Munosabat mantiqiga muvofiq, munosabat — bu ikki o'rinni (valentli) predikatdir. Demak, u eng kamida uch qismdan tarkib topadi: element — munosabat — element. Ob'ektiv modallikning yuqoridagi sxemasida (gap mazmuni reallik) «gap mazmuni» munosabatga kirishayotgan elementlardan biri sifatida qatnashmoqda. Ammo munosabatning (modallikning) o'zi aks etmagan. Bu o'rinda eng zarur qism — «subyekt» yetishmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslardan obyektiv modallikni gap mazmunining so'zlovchi nuqtai nazaridan obyektiv reallikka munosabati sifatida talqin qilib, yetishmagan elementni to'ldiradilar.

Subyektiv modallik ko'pchilik tilshunoslardan fikricha, «subyekt» va «gap mazmuni» elementlarini o'z ichiga oladi. Uning sxemasi quyidagicha: «subyekt—gap mazmuni». Bu yerda ham zaruriy element, «obyekt» (reallik) aks etmay qolgan. Demak, subyektiv modallik ham uch a'zo: «subyekt», «gap mazmuni», «obyekt» birligidan iboratdir. Har safar «obyekt» elementi paydo bo'lishi bilan ongda darhol «subyekt» elementi ham vujudga keladi yoki, aksincha, «subyekt» elementi paydo bo'lishi bilan — «obyekt» element ham paydo bo'ladi va bu bilan bir vaqtida obyektivga subyektiv ishlov berish mexanizmi ham qo'shiladi. Bu ishlov berishning mohiyati asos deb olinayotgan narsaning ushbu tafakkur akti predikatiga munosabatini (yoki, aksincha, ikkinchi elementning birinchi elementga munosabatini) belgilashdan iboratdir.

Kontekstual gap komponentlari ehtimollikni, odatiy, majburiy va moyillikni ifodalovchi turlarga ajratilishi mumkin. O'z navbatida bu turlar kuchli, o'rtacha va sust ifoda shakllariga ajratiladi.

Masalan:

Ifoda turlari va darajalari	Ehtimollik	Odatiylik	Majburiylik	Moyillik
Kuchli	<i>Albatta, shunisi aniqki+kelasi zamondagi fe'l</i>	<i>Har doyimgidek</i>	<i>Talabga ko'ra, aytilishicha,</i>	<i>Jiddiy ravishda, chin dildan, qat'iy, dadil</i>
Mo'tadil	<i>Balki, ehtimol</i>	<i>Odatda shunday edi yana bilmasam,</i>	<i>Kutilmoqda, arkan</i>	<i>- Ma'qul, afzalroq</i>
Sust	<i>-ar, -ishi mumkin, -mikan</i>	<i>Ba'zan yana o'z biladi</i>	<i>Ruxsat berilishicha, bunda aytilishiga ko'ra</i>	<i>Ixtiyoriy, serhavsala, tayyor, ko'ngildan, samimii</i>

O‘zbek tilidagi ushbu til birliklarini gapdagi o‘rniga, ular ifodalagan semantik munosabatlarga ko‘ra tahlil qilib o‘rganish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda, og‘zaki muloqot aktida modal munosabatlar tadqiqi alohida tadqiqot mavzusi ekanligini e’tirof etish o‘rinlidir. Shaxslararo munosabatni ifodalovchi sintaktik birliklar so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan bildirilayotgan fikrga, shaxsiy munosabatning qo‘sib ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Masalan, aytishlaricha, aytishlariga qaraganda, bu yerda aytishlaricha, bunda aytilishicha zarur ekan, mish-mishlarga qaraganda, deb ta’kidlangan, men senga aytdimku (xitob), buyuraman, sendan so‘rayapman, talabim shuki, maslahatim shuki, gap shundaki, mutlaqo qarshiman kabi birikmalar og‘zaki muloqot aktining shaxsiy munosabatni ifodalovchi birliklari ekanligi muloqot vaziyatida oson anglanishi mumkin. Ushbu birliklar muloqotda darak va so‘roq shakllarda qo‘llanilishi mumkin, masalan:

1. Yolvoraman, bunday qilma, keyinchalik afsuslanib yurasan. Sizdan bunday qilmaslikni yolvorib so‘rasam, qo‘yarmikansiz?
2. Maslahatim, bu yo‘ldan bormang, qiynalasiz! Maslahat bersam maylimi? Bu yo‘ldan bormang qiynalasiz?
3. Sizdan talabimiz shuki, bugunoq uyni bo‘shatasiz. Sizdan talabimmi? Bugunoq uyni bo‘shating.

Bunday shaxslararo munosabat ifodalovchi modal ma’noli so‘zlar muzokara muloqot aktlarida ko‘p qo‘llaniladi va o‘zaro bitim yoki kelishmovchilikni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bunda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy masofa muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Muloqot mazmuni ishtirokchilarining mavqeiga munosabat rasmiyligi, tana harakati, odobi va muomalasi bilan boyitiladi. Bunda shaxslararo munosabatni ifodalovchi birliklar o‘zaro muloqotdagi ifodaning asosiy turi bo‘lib, muloqot matnidagi so‘z o‘rni va u ifodalayotgan ma’noning ramziy ifodasi sanaladi.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot mazmunini ularning maqsadlariga muvofiq ta’minlab beradi. Muloqot aktida bu alohida sintagma shaklida ohang yordamida ifodalaniladi, masalan:

1. Menimcha/ yana shuni ham aytish kerakki//...
2. – Hozir to‘laymi //yoki keyin? – Hozir to‘laganingiz / ma’qul. Dori 5 daqiqadan so‘ng olib kelinadi .
3. Iltimos/ bakni to‘ldirib bersangiz. – Menimcha/ sizning mashinangiz uchun qo‘rg‘oshin aralashmasi bo‘lmagan yoqilg‘i kerak .

Bunday gap bo‘laklari pragmalingvistikada perlokutsiya akti deb nomlanib, muloqotning asosiy mazmuni bo‘lgan muhim jumлага munosabatni ifodalaydi. Shuningdek, rivojlangan diskurs tilshunoslikning nutq akti nazariyasida ham bu holat haqida fikrlar o‘z aksini topgan, lekin oxiriga qadar tadqiq qilinmagan tadqiqot mavzusi sanaladi. Aytilgan fikrga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalovchi muloqot akti komponentlarini mayl ifodalovchi gap bo‘laklari deb nomlash ma’qul sanalgan, ammo bu bahsli munozara yakuniga yetmagan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McCarthy, Michael. 1996. Discourse analysis for Language Teachers. Cambridge: CUP
2. M.K.Halliday, “Descriptive Linguistics In Literary Studies”, A&C Black, 1970, p 349
3. M.K.Halliday, “The language of science”, London: Continuum, 1970, p 335
4. Porter, Paul H., “ What is Meaning? Fundamentals of Formal Semantics.” UK: Blackwell Publishing, 2005
5. Taboada, Maite. 2000. Cohesion as a Measure in Generic Analyses. [viewed 26 October 2006]. <http://www.ucm.es/info/circulo/no3/taboada.htm>